



OLIY TA'LIM TALABALARINING MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTINI TASHKIL ETISH MEKANIZMLARI

Turakulova F.A.

Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

Tayanch so`zlar: malakaviy pedagogik amaliyot, amaliyotchi-talaba, uch tomonlama shartnoma, qabul qiluvchi tashkilot, amaliyot rahbari, nazariy bilim, amaliy malaka, kreativ, kompetentlik, pedagog kadrlar.

Ключевые слова: квалифицированная педагогическая практика, практик-студент, трехсторонний договор, принимающая организация, руководитель практики, теоретические знания, практические навыки, креативность, компетентность, педагогический персонал

Key words: qualified pedagogical practice, practitioner-student, tripartite agreement, host organization, practice supervisor, theoretical knowledge, practical skills, creativity, competence, pedagogical staff.

Резюме:

Maqolada zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq pedagogika oliy ta'lim talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish mazmuni, maqsad va vazifalari, amaliyotchi talabalarga qo'yilgan talablar, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etilishida xorij tajribasini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan va pedagogika oliy ta'lim talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish texnologiyasining modeli aks ettirilgan.

Резюме:

Содержание, цели и задачи организации квалифицированной педагогической практики студентов-педагогов в соответствии с современными научными данными, требования к практикующим студентам, изучение зарубежного опыта применения современных и передовых педагогических технологий на практике. В статье представлена информация и отражена модель технологии организации квалифицированной педагогической практики студентов педагогических вузов.

Summary:

Content, goals and objectives of the organization of qualified pedagogical practice of pedagogical students in accordance with modern scientific data, requirements for practicing students, study of foreign experience of applying modern and advanced pedagogical technologies in practice. The article provides information and reflects the model of technology of organization of qualified pedagogical practice of students of pedagogical universities.

Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti - ta'lim turlari uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismidir. Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabalarining kasbiy ko'nikma va



malakalarini rivojlantiruvchi pedagogik jarayon bo'lib, bu jarayonda amaliyotchi-talabalar olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining barcha tomonlarini o'rganib tahlil qilib boradilar. Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi NIZOMga ko'ra Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabalari amaliyotni kasbiy xususiyatidan kelib chiqib, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiradilar. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi-talabalar amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasi shart-sharoit va ichki tartib qoidalariga moslashish, pedagogik jamoa bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar va Oliy ta'lim muassasasini tamomlagandan keyin ish bilan ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi uch tomonlama shartnoma tuzish bilan boshlanadi. Uch tomonlama shartnoma oliy ta'lim muassasasi, talabalar va amaliyot o'tiladigan tashkilot o'rtasida tuziladi. Tuzilgan shartnomaga asosan tanlab olingan tashkilot talabalarni malakaviy pedagogik amaliyot reja-jadvali va dasturlarini to'la hajmda bajarishini ta'minlashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi shart. Talabalarni qabul qiluvchi tashkilot shartnoma asosida malakaviy pedagogik amaliyot rahbarini tayinlaydi va amaliyotchi-talabalarga biriktirib qo'yadi. Tashkilot tomonidan belgilangan malakaviy pedagogik amaliyot rahbari o'z tajribasi bilan tashkilotda muvafaqqiyatga erishgan, o'z ishini ustasi, yangilikka intiluvchan, ko'p yillik ish tajribasiga ega umuman olgan kreativ bo'lishi lozim. Chunki, tashkilot tomonidan belgilangan malakaviy pedagogik amaliyot rahbari butun amaliyot davomida amaliyotchi-talabalarni tashkilot ichki tartib qoidalari bilan tanishtiruvchi, kasbiy amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi, amaliyot davrida talabani kasbiy layoqatini baholash mas'uliyatini va uning zimmasiga yuklangan bir qator boshqa vazifalarni sidqidildan bajaruvchi xodim bo'lishi shart. Zero, oliy ta'lim talabalarining kelgisidagi pedagogik faoliyatida qanday muvafaqqiyatlarga erisha olishi aynan ularning malakaviy pedagogik amaliyoti va bu amaliyotda tashkilot tomonidan tayinlangan rahbar mahoratiga bog'liq. Oliy ta'lim talabalari oliy ta'limda faoliyat olib boruvchi ta'lim beruvchilardan mutaxassislik fanlarining nazariy tomohlarini o'rganishsa, tashkilot tomonidan biriktirilgan raxbardan egallayotgan kasblarining amaliy sirlarini o'rganadilar. Demak, malakaviy pedagogik amaliyot jarayoni talabalarining o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy ifodasidir.

Bakalavr yo'nalishlari bo'yicha pedagogik mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan malakaviy pedagogik amaliyoti pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabalarining oliy o'quv yurtida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriyat yo'nalishlari bo'yicha olingan

nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash va kasbiy kompetenlikni shakllantirish imkoni o'rganiladi.

Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy taminoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta'lim tashkilotlarida davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan shakllarda tashkil qilinadi. Malakaviy pedagogik amaliyot oliy o'quv yurtida malakali mutaxassislar tayyorlash nuqtai nazaridan o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Malakaviy pedagogik amaliyot talabaga oliy o'quv yurtida olgan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyatni egallashda dastlabki malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'quvchilar bilan ishlash tajribasini egallashga yordam beradi. Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining pedagogik-psixologik fanlardan, metodika va ixtisoslik fanlaridan egallagan ilmiy-nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari sinovdan o'tkazilib, talabalarining kelajakdagi pedagogik faoliyatida ijodiy qo'llay bilishga tayyorlaydi. Malakaviy pedagogik amaliyotga nazariy va amaliy ta'limga oid o'quv rejani to'liq bajargan talaba yuboriladi.

Bakalavr yo'nalishlari bo'yicha pedagogik mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan pedagogik amaliyot ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llanayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy ta'minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta'lim tizimining barcha tashkilotlarida o'tkaziladi. Bo'lajak pedagog-kadrlarning nazariy bilimlari malakaviy pedagogik amaliyotning turli shakllarini amalga oshirish jarayonida mustahkamlanadi. Ana shu sababli malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishda bilim va tajribaning uyg'unligiga tayanish muhimdir. Pedagogika, psixologiya va metodika fanlarini mufaqfiyatli o'zlashtirgan talabalar real ta'lim sharoitida ta'lim oluvchilarni ilmiy bilimlar bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishlarida hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Ya'ni malakaviy pedagogik amaliyot davrida, o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy maqsadini belgilash, tarbiyaviy ishni tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha o'zlarida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar.

Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabalarini malakaviy pedagogik amaliyot davrida o'z mutaxassisligi bo'yicha ilmiy va nazariy bilimlarni tajriba sinovdan o'tkazadi, dars va mashg'ulotlarni tashkil qilishning ilmiy – metodik tomonlarini o'zlashtiriradi, fan va mashg'ulot mavzulari bo'yicha bayon etiladigan nazariy ma'lumotlar asosida bilim berish, iqtidor hosil qilish, ularda fanga, borliqqa,



ilmga nisbatan qiziqish uyg'otish va ijobiy fikrni tarbiyalash, Vatanga muhabbat tuyg'usini yuzaga keltirishning amaliy usullarini tatbiq etishning yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirib oladilar.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talaba ta'lim muassasasi an'analari bilan tanishadi, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganadi, uni o'zining amaliy faoliyatida tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, eng muhimi, o'quv va tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish, dars va mashg'ulotlarda qo'llaniladigan darslik va metodik qo'llanmalardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini o'rganadi. Bulardan tashqari, tarbiyaviy, o'quv-uslubiy ishlarni tashkil qilish, uni o'tkazish, o'quvchilarning to'garaklariga rahbarlik qilish, istedotli o'quvchilar bilan ishlash va ularning fanga nisbatan qiziqishlarini o'stirish bilan bog'liq bo'lgan o'quv – tarbiyaviy ishlarning uslubiy yo'llarini o'zlashtiradi.

Malakaviy pedagogik amaliyotda faol ishtirok etishni ta'minlash talabaning ta'lim muassasasini boshqarishning ilmiy asosini o'rganishga o'quv jarayonining samarali usullarini joriy qila bilishga imkon beradi.

Malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash uchun nazariy va amaliy ta'limning o'quv rejalarini to'la bajargan talabalarga ruxsat beriladi.

Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabasi malakaviy pedagogik amaliyotdan oldin fakultet metodistlaridan amaliyot kundaligi va dasturini olishi hamda bajarishi lozim bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning mohiyati bilan tanishib tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatini olishi kerak.

Oliy pedagogika ta'lim sohasi talabasi malakaviy pedagogik amaliyot davrida quyidagilarni bajarishi shart:

- ta'lim tashkilotining ichki tartib – qoidalariga rioya qilish, malakaviy pedagogik amaliyot dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni to'liq bajarish;
- ta'lim tashkiloti rahbari va ilmiy bo'lim mudirining hamma topshiriqlarini bajarish hamda o'qituvchilar va amaliyot boshlig'ining ko'rsatmalariga amal qilish;
- ta'lim tashkiloti (sinf, (guruh)lar, laboratoriyalar, o'quv ustaxonalari, ta'lim muassasasi uchastkasi va sanitariya uchastkalar) bilan batafsil tanishish;
- ta'lim tashkilotining o'quv - tarbiyaviy ish rejalarini o'rganib chiqish;
- sinf (guruh) o'quvchilari va ularning davomati bilan tanishish;
- mutaxassisligi bo'yicha sinov darslarini o'tkazish;
- malakaviy pedagogik amaliyot davrida fan o'qituvchilarining darslariga qatnashish, kuzatish va tahlilini qilish;
- darsdan tashqari ishlar(daftar va kundaliklarni to'ldirish);
- o'quvchilarning uylariga borish va ularning ota-onalari bilan suhbatlar uyishtirish, ta'lim tashkilotlarida majlislarini o'tkazishda faol ishtirok etish;
- o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan qo'shimcha darslar tashkil etish;

- ta'lim tashkilotida madaniy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bajarish;
- malakaviy-pedagogik amaliyot kundaligini muntaazam yuritish;
- malakaviy pedagogik amaliyotda bajarilgan hamma ish amaliyotchi talabani o'quv – tarbiyaviy ishlar tavsifi - tematik rejasida o'z ifodasini topmog'i lozim.

Malakaviy pedagogik amaliyot Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi NIZOMning 6-bobi Malakaviy pedagogik amaliyotni yakunlash [1] tartibida ko'zda tutilgan quyidagi qoidalar asosida yakunlanadi:

- Malakaviy pedagogik amaliyot yakunida amaliyotchi-talaba yozma ravishda pedagogik amaliyot dasturi bo'yicha tayyorlagan hisobotni hamda uni qabul qiluvchi tashkilot rahbari tomonidan imzolangan kundaligi, hisoboti bilan birga amaliyotdagi faoliyati bo'yicha olgan bahosi rasmiylashtirilgan qaydnomani asl nusxasini OTM dekaniga belgilangan muddatda topshiradi.

- Amaliyotchi-talabani malakaviy pedagogik amaliyotini baholash jarayoni uni qabul qiluvchi tashkilot rahbari tomonidan o'tkaziladi va fakul'tet dekani, tegishli kafedra mudiri, malakaviy amaliyot va hamkorlik bo'limi vakili ishtirokida "Amaliyotchi portfoliosi" bilan muvofiqlashtiriladi.

- Malakaviy pedagogik amaliyot natijasi bo'yicha baho talabani kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

- Malakaviy pedagogik amaliyot o'quv dasturida belgilangan tartibda baholanadi.

Amaliyot davrida amaliyotchi talabani amaliyot dasturida belgilangan vazifalarni bajarishi "Amaliyotchi portfoliosi"da joriy baho (ball) sifatida belgilab boriladi va ushbu baholar hisobot himoyasi bo'yicha baholanishida inobatga olinadi.

- Malakaviy pedagogik amaliyot yakuni OTM tegishli fakul'tet kengashida muhokama qilinadi va zarur hollarda qabul qiluvchi tashkilotlarning vakillari ishtirok etishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM.
2. <https://www.morebooks.shop/store/ru/book/malakaviy-pedagogik-amaliyotni-tashkil-etish-va-otkazish/isbn/978-3-639-78105-2>.
3. Dilafuz Ahmadovna Sayfullayeva. "Methodology of using innovative technologies in technical institutions". Psychology and education. Scopus International Journal.(2021) 58(1)
4. Bo'ronov M., Qurbaniyozov G. Pedagogik amaliyot-ixtisoslik kamoloti- Nukus, «Bilim», 1995
5. Gorskaya G.I. Organizatsiya uchebno-vospitatel' nogo protsessa v shkole - Moskva, «Prosveshение», 1977.
6. Zunnunov A. Pedagogik tadqiqot metodikasi, -T.: 2000.
7. Ksenzova G.Yu. Innovatsionnie texnologii obucheniya I vospitaniya shkol'nikov. M.: Pedagogicheskoe obshestvo Rossii, 2005.